

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ROSSIYANING BIRINCHI PREZIDENTI B. N. YEL SIN
NOMIDAGI URAL FEDERAL UNIVERSITETI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**INSON FAROVONLIGINI
O'RGANISHDA FANLARARO
YONDASHUV**

xalqaro ilmiy konferensiya materiallari

II QISM

Toshkent – 2023

Mas'ul muharrir:

Muxamedov Gafurjon Isroilovich

Kimyo fanlari doktori, professor, O'zbekiston fan arbobi

Tahrir hay'ati:

O.D.Ziyadullayev, E.E.Simanyuk, J.E.Usarov, S.B. Malix, D.O.Ximmataliyev, T.N.Tixomirova, R.A.Ikromov, Serdar Serdar uglu, J.F.Ravshanov, A.A.Pecherkina, G.O.Ernazarova, D.E.Chernousov, F.U.Qodirova, YU.V.Zapariy, N.X.Elmurzaeva, YU.E.Pyankova, SH.R.Samarova, A.P.Andropov, A.N.Rasulov, S.B.Qorayev, I.D.Qodirov, S.Gayupova, K.R.Mamadaliyev, A.S.Burnasov, N.J.Eshnayev, SH.E.Nurmamatov

Konferensiyaning maqsadi jamiyatda inson farovonligini oshirish muammolarini o'rghanish va bu yo'lida izlanishlar iolib borayotgan tadqiqochilarga amaliy yordam berish, ularni birlashtirishdan iborat. Insonning hayotda yashash darajasining sifat jihatidan o'sib borishi, raqamlashtirish jarayonlarining jamiyat, ijtimoiy guruqlar va shaxslarga ta'sirini o'rghanishga fanlararo yondashuvni ishlab chiqishni nazarda tutadi. To'plamdan shaxs farovonligining psixologik, inson farovonligining demografik jihatlari, ijtimoiy-madaniy aspektlari, ta'lim inson farovonligining bosh omili ekanligi, mustaqil-ta'lim klasteri inson farovonligining assosi va raqamlashtirishning inson farovonligini ta'minlashdagi qulayliklari masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rinn olgan. Kitob soha mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Ilmiy to'plam Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2023 yil 27 sentyabrdagi 02-sonli qo'shma yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. Ilmiy to'plam maqolalarida keltirilgan iqtibos va dalillar obyektivligi mualliflar zimmasida qoldiriladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

ISBN 978-9910-9966-6-5

© Zebo prints, 2023.
© Chirchiq davlat pedagogika universiteti

9. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alovida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. *Ta'limgizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari*, 1(1), 365-368.

KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLARNI TASHKIL ETISHDA KLASTER MUHITINING ZARURIYATI

Xusnuddinova Zulayxo
CHDPU Maxsus pedagogika
kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster modelida innovatsion ta'limgizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari.

Kalit so'z: tiflopedagogika, klaster, hamkorlik, subyekt, oila, mahalla, ta'limgizimida yangi metodikalar, muassasalari, tizimli yondashuv.

Respublikamizda klaster va undan Davlat sohalarida foydalanish asosiy maqsad qilib olindi. Bu esa ta'limgizimida yangicha imkoniyatlar eshagini ochmoqda. Shu sababdan avvalo, klaster tushunchasini ifodalsak. "Klaster so'zi inglizcha "klaster", "klyster" so'zlariga qaytadi, tarjimada - shamlardan, tuplardan, umumiy hovli va atrofdagi hovli binolarini anglatadi. Birinchi marta ushbu atama Maykl Evgeniy Porter tomonidan ilmiy foydalanishga kiritildi. O'zining klassik ta'rifida: "klaster - bu o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, ularning ma'lum sohalardagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan raqobatdosh, ammo shu bilan birga qo'shma ish olib boradigan tashkilotlarning geografik jihatdan konsentrangan guruahlari"-deydi.

Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan, klaster bu bir-biriga bog'langan va bir-bingga bog'liq bo'lgan elementlarni ma'lum bir maqsad uchun birlashtirilgan yagona tashkiliy tuzilishga birlashtirilgan turli sohalardagi faoliyat yurituvchi subyektlar majmuidir. M.Porter o'z tajribasida shuni ko'rsatadiki, "Kompaniyaning raqobatbardoshligi asosan uning iqtisodiy muhitining raqobatbardoshligi bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida asosiy shartlarga (umumiy resurs) va klaster ichidagi raqobatiga bog'liq", - deb ta'kidlaydi.

Rus olimi A.M.Kamenskiyning fikricha, pedagogikada klaster tushunchasi faoliyatni hamkorlikda tashkil qilishni anglatadi. Tadqiqotchi bu hamkorlikni faqat loyihibar, tadqiqotlar, ishlanmalar va ilmiy maqolalarning jamoaviy tarzda birga bajarilishi bilan izohlaydi. Ta'limgizimida bunday yondashuv tushunchaning ma'no mundarijasini bir oz toraytirib qo'yadi.

E.R.Skorniyakovaning fikricha, ta'limgizimida yangi metodikalar bilan foydalanishning amaliy asoslari yadrosoi atrofida birlashtirilgan o'zaro bog'liq obyektlar guruhlari (ta'limgizimida yangi metodikalar, muassasalari, jamoat va siyosiy tashkilotlar, ilmiy maktablar, universitetlar, tadqiqot tashkilotlari, biznes tuzilmalari va boshqalar) o'z ichiga olgan moslashuvchan tarmoq tuzilishi. [3]


G.I.Muhamedov ta'kidlashlaricha klaster tizimi har biri alohida faoliyat yuritayotgan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ushbu hamkorlik asosida har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish jarayonini tashkil etadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va o'zaro bir-birlarini nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda mohiyatini kengaytiradi. [1]

F.U.Qodirovaning "Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari" mavzusidagi dissertatsiya ishida innovatsion ta'limga klasterining ta'limga jarayonidagi o'rni, shu bilar birga inklyuziv ta'limga samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik ta'limga innovatsion klasteri muhitini yaratish nechog'lik muhim ekanligi bayon etilgan.

Klaster doirasida bir qancha subyektlarni o'zaro hamkorligini ta'minlash murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayon. O'zaro bog'liq bir qancha faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida yig'ish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlarni, yakuni kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shu bilan klaster subyektlarining ishonchini qozonadi. Klasterni byurokratik va ma'muriy yo'llar bilan amalga oshirib bo'lmaydi.

Pedagogik ta'limga innovatsion klasteri doirasida amalga oshiriladigan uzlusiz ta'limga kontseptsiyasining muhim xususiyati bu tizimning barcha bo'g'inlarining uzlusizligidir. Har bir oldingi havola keyingisining to'liq sharti bo'lishi kerak.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarni tashkil etishda klaster muhitining zaruriyatini quyidagi chizmada aks etirilgan



Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster modelida 7 yo'naliishdagi korreksion mashg'ulotlar birlashgan holda bir butunlikni tashkil etadi. Biroq bu butunlik korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishda, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kompleks rivojlantirishda yetarli emas. Bunda bizga innovatsion ta'lif klaster subyektlari ko'maklashadi.

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumi ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funksiyalarini hisobga olish darkor. Oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv). Albatta bu sanab o'tilganlar hozirgi zamon oilasining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Bolalarni dunyoga keltirish, xo'jalik maishiy, tarbiyaviy, oila a'zolari dam olishi va uni tashkil etish, ma'naviy muloqot, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash kabi klassifikatsiyalar ham mavjud.

Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan biri – bu uning reproduktiv (jamiyatni biologik uzliksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda, aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtadan farzand bo'lishi nazarda tutiladi. Bolalarning aqliy, jismoni, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oilaning kommunikativ funksiyasi oila o'zaro hurmat, bir-biriga tushunish muhitini yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, odamning ahloqiy, ma'naviy va ruhiy salomatligi oiladagi o'zaro bir birini tushunish, ichki muloqot tabiat, xonadondagi yoshi kattalarning bir biriga bo'lgan munosabati bevosita bog'liqdir.

Oilada dunyoga kelgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola ota -ona uchun mudhish hodisadek tuyuladi. Agar bolaga to'g'ri yondashilsa, u to'g'ri rivojlanadi. Bola o'zini anglasa atrof olamni ham anglaydi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning oilalariga bolani o'z-o'zini rivojlantirishiga qaratilgan Montessori usulini taklif qildik. [2]

1. Bolalar ularni o'rab turgan olamga qarab o'rganadilar.
2. Agar bola tez-tez tanqid qilinsa, u qoralashni o'rganadi.
3. Agar bolani tez-tez maqtasangiz, u baholashni o'rganadi.
4. Agar bolaga dushmanlik ko'rsatilsa, u jang qilishni o'rganadi.
5. Agar bola bilan samimiyl bo'lsangiz, u adolatni o'rganadi.
6. Agar bola tez-tez haqorat qilinsa, u qo'rkoqlikni o'rganadi.
7. Agar bola xavfsizlik hissi bilan yashasa, u ishonishni o'rganadi.
8. Agar bola tez-tez uyaltirilsa, u o'zini aybdor his qilishni o'rganadi.
9. Agar bola do'stona muhitda yashasa va o'zini zarur his qilsa, u bu dunyoda sevishni o'rganadi.
10. Bola haqida yomon gapirmang - u bilan ham, usiz ham.
11. Bolada yaxshilikni rivojlantirishga e'tibor qarating - natijada yomonlikka o'rin qolmaydi.

12. Sizga murojaat qilgan bolani doimo tinglang va unga javob bering.

13. Xatoga yo'l qo'ygan va uni hozir yoki keyin to'g'rila shga qodir bo'lgan bolani hurmat qiling.

14. Farzandingizga ilgari o'zlashtirilmagan narsalarni o'zlashtirishga yordam bering. Buni atrofingizdagi dunyoni g'amxo'rlik, vazminlik, sokinlik va mehr bilan to'ldirish orqali qiling.

15. Bola bilan muomalada doimo eng yaxshi xulq-atvorga rioya qiling - unga o'zingizdagi eng yaxshi narsani taklif qiling.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki ta'lim muassasasiga borguniga qadar oilada ilk ijtimoilashuvi, sog'lom sezgi analizatorlaridan unumli foydalanishi, mo'ljal olishi, bolani o'rab turuvchi mikro hududda kattayu-kichik predmetlar haqida ilk tasavvurlarini hosil qilishi kerak.

O'rganishlar davomida shu narsa ayon bo'ldiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning oilalar bunday farzandlarin atrofdagilardan qarindoshlar, mahalladan yashirish holatlari kuzatildi. Bunday muammoni bartarf etishda mahallaning roliga ahamiyat qaratdik. Mahalla o'z mikro hududida dunyoga kelgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola haqida habardor bo'lishi kerak.

"Mahalla" atamasining kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi va u arabcha so'z bo'lib o'zbek tilidagi "joy" ma'nosini bildiruvchi "mahallun" so'zidan kelib chiqqan.

U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamaa, elat, elod nomlarida atalib kelingan. Ammo mahalla nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan hisoblanadi. Shu bilan birga mahalla milliyligimiz timsoli hamda qadriyatlar va urf-odatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida, o'zligimizni anglashga, milliy g'urur va vatanparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mahallalarga ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning oilalarini ijtimoiylashuviga yordam tariqasida ixtisosolashtirilgan ta'lim muassasalari va tibiyot birlashmalarida mutaxasislarni jalb qilgan holda mahalla yig'ilishlarida, imkoniyati cheklangan bolalar haqida tushunchalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, hamda rivojlanishdagi kamchiliklarni kelib chiqish sabablari to'g'risida davra suxbatlarini, turli bayram tadbirlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola va ularning oila a'zolari ishtirokida musobaqalar tashkilshtirishni taklif qilinadi. Shunda aholi ham imkoniyati cheklangan bolalar (ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar) bilan to'g'ri munosabatga kirishadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning oila a'zolari ham o'z farzandlaridan uyalib ularni berkitishmaydi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'z tengqurlari bilan do'stona munosabtda o'ynaydilar, rivojlanadilar. Bu orqali esa, ijtimoiy muhitga onson moslashib, ta'limga tayyorlanadilar.

Tibbiyot birlashmalar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning salomatligini muntazam ravishda nazorat qilish orqali oilaga ko'maklashadi. Tibbiyot birlashmalar nafaqat oilaga balki, har bir ta'lim muassasasidagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolani yiliga ikki marta tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari nogironlikni oldini olish masalasi ham tibbiyot birlashmalar tomonidan mahallalarda ma'ruzalar, suhabatlar amalga oshirilishi ta'lim subyekti doirasida alohida e'tibor qaratildi. Tibbiyot birlashmalar tomonidan yosh qizlarni

erta turmushga bermaslik, qarindoshlik o'rtasidagi nikohlar nogironlikni keltirib chiqaruvchi sabablari keng jamoatchilikka yetkazildi.

"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internat pedagoglari maxsus metodikalarga tayangan holda, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi ikkilamchi nuqsonlarni bartar etishi yoki sezilmas darajada rivojlantirishda 7 ta yo'nalishdagi korreksion mashg'ulotlardan foydalanadilar. Ijtimoiy hayotga moslashishi, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakkantirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi jarayonda, korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishda esa, ota-onalar, mahalla, tibbiyot birlashmalari bilan hamkorlikda harakatlanadilar.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster modelida innovatsion ta'lif klaster subyektlari hamkorligini ta'minlash namoyon bo'ldi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarni tashkil etishda klaster muhitini yaratish ta'lif samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tushunib yetgan holda, klaster subyektlari hamkorlikni amalga oshirsalar, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda har tomonlama (o'qish jarayoni, do'stlar bilan muloqot, ijtimoiylashuv jarayoni) o'sish holatlari yuzaga chiqadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola jamiyatda o'z o'rnini topishga muvaffaq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhamedov G.I. va b. "Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri" (monografiya) 2020
2. Макаренко А.С. "Педагогические очерки" "Педагогика" Москва-1983.
3. Рычихина Н.С. "Образовательный кластер как стратегия развития сферы образования" "Профессиональное образование" журнал 19 (346) – 2014
4. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 68-70.
5. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 80-82.
6. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg'ulotlar ish tizimini tashkil etish. *Ta'lim va rivojlaniishi ta'xili online onlayn ilmiy jurnali*, 218-220.
7. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alovida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. *Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari*, 1(1), 365-368.

O'ZBEKISTON SHAROITIGA KLASTERGA OID XALQARO TAJRIBALARING TA'SIRI

G'affarova Gulchehra

CHDPU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi kafedrasi prosessori

Yo'ldoshev Avazbek

CHDPU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi kafedrasi o'qituvchisi

Mintaqaviy va milliy iqtisodiyot miqyosida raqobatbardoshlikni ta'minlash tizimli, izchil, dalillarga asoslangan chora-tadbirlarni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu savol iqtisod fanining doimiy diqqat markazida. Biroq, iqtisodchi olimlarning ushbu mavzudagi muhokamalari, tahlillari va ilmiy ishlariga